

MAKTABGACHA TA'LIMDA MUSIQIY JARAYONLARNI TASHKIL ETISHDA YANGI PEDAGOGIK TAXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika institute
Ijtimoiy fanlar fakulteti „San'atshunoslik”
kafedrasida katta o'qituvchisi
Ruziyeva Orzigul Ilyosovna
Musiqiy ta'lim yo'nalishi talabasi
Xoliqova Sevara*

Annatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda musiqiy jarayonlarni tashkil etish metodlari haqida so'z yuritilgan. Musiqa san'ati shunday san'at turi ekanligi, u insonlarni kechinmalari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtirishini anglatadi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb, atash mumkinligi aytib o'tilgan.

Kalit so'z: Musiqa, san'at, bilim, malaka, ko'nikma, texnologiya, termin, estetika did, qobiliyat.

Аннотация: В статье рассматриваются методы организации музыкальных процессов в дошкольном образовании. Тот факт, что музыка является видом искусства, означает, что она объединяет людей через их переживания и эмоциональные чувства. Это становится средством общения между ними. Говорят, что тот факт, что музыка, созданная одним композитором, может вызывать разные эмоции в сердцах других людей, сам по себе можно назвать чудом.

Ключевые слова: Музыка, искусство, знание, умение, технология, термин, эстетика, вкус, умение.

Abstract: This article discusses the methods of organizing musical processes in preschool education. The fact that music is such an art form that unites people through their experiences and emotional feelings means that it becomes a means of communication between them. It is said that the fact that music created by one composer can evoke various experiences in the hearts of other people can be called a miracle.

Keywords: Music, art, knowledge, skills, abilities, technology, terms, aesthetics, taste, ability.

Ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muhim o'rin egallaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta'limning sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o'qitilish ahamiyati

katta bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir mashg'ulotning asosiy vazifasi bolalari fikrlash va o'ylashga o'rgatishdir. Musiqa san'atining ahamiyati musiga shunday san'at turiki, u insonlarni tinchlantiradi, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi.

Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb atash mumkin. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim yo'nalishlariga alohida urg'u berilmoqda. Kundan kunda yangi maktabgacha ta'lim muassasalari barpo etilib, musiqiy tarbiyaning estetik ahamiyatini va musiqaviy tarbiyalarni oshirishmoqda. O'zbekiston Davlat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham: "Yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish bilan kelajakda ularning o'zligini bilishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q", -deya aytgan edilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarga musiqiy savodlarini balki, jismoniy madaniyatlarini oshirish ham shu jumladandir. Har kuni ertalab bolalarga badan tarbiyalar qildirish bilan ularni chiniqtirish lozimdir.

Biz bolalarni musiqiy jarayonni tashkil etish metodlari haqida aytsak, ularga musiqa tinglash va kuylashga o'rgatish metodlari ham kiradi. Musiqa san'atiga qatnashish usullari asarlarning mazmuni va harakteri, ularning qanday ijro etilishiga ko'ra bilishimiz mumkin. Xor ijro qilyaptimi yoki solist ijrosi bo'lyaptimi jonli ijro qilinmoqdami yoki fanogramma qilinmoqdami-bularning barchasi tinglashga o'rgatish metodlarida namoyon bo'ladi. Bolalarga tinglashga o'rgatishga musiqiy asboblarning ham juda ma'qulidir. Sababi ular musiqiy asboblarga juda qiziqadilar va mana shu qiziqishlar ham ularning musiqiy savodlarini oshirishga yordam beradi.

Kuylashga o'rgatish metodlari esa: barcha repertuarni o'rganib borishga muvofiq murakkablashib boradi. Ashulachilik ovozi, musiqa qobiliyatini o'stirish, maktabda notalar bilan kuylashni muvaffaqiyatli o'rganishga imkon beradi. Bolalar ashulani o'rganar ekanlar, musiqa, uning mazmuni, kuyining tempi, harakteri, dinamikasi haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Mashg'ulotlarda vokal mashqlar 2-4 daqiqagina davom etadi, biroq ularni sistemali tarzda takrorlash tovushning to'g'riga shakllanishiga hamda ovozning tiniq chiqishiga yordam beradi. Kichik yoshdagi bolalarda musiqa tinglash (3-4 yosh): qo'shiq, raqs va marsh janrlari haqida tasavvur uyg'otish va ularni mazmunan tushuntirish joizdir.

O'rta yoshdagi bolalarda musiqa tinglash (4-5 yosh): ular tinglayotgan asarining mazmuni va harakterini ajrata olish va asar haqida o'z taassurotlarini baham ko'rishadi. Katta yoshdagi bolalarda (5-6 yosh) musiqa tinglash: musiqa asarining

kayfiyati,harakterini mustaqil farqlash va undan olgan xulosalarini baham ko'rish.Vokal va cholg'u asarlaridan bahramand qilish va ushbu janrlar haqida tushuncha hosil qilib,ularni farqlashdir. Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarda(6-7 yosh) musiqa tinglash: musiqa asarining mazmunini tushunish,kirish qismi,band naqorat qismi,hamda xotimasini farqlashga o'rgatish.Ichki dunyosini boyitish uchun yordam beradi.Undan tashqari estetik didni shakllantiradi.O'zbek mumtoz va zamonaviy shuningdek,jahon mumtoz musiqasi na'munalaridan bolalarni bahramand qilish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bayram ertaliklari.

Bolalarning bog'chadagi o'tkazayotgan vaqtlarini esda qolarli, bolalarning kayfiyatini ko'tarish,bayramona madaniyatini shakllantirish va bolalarni xursand qilish maqsadida bayram ertaliklari o'tkaziladi.

Har bir guruhlar uchun bayram ertaliklari mavjud.

Bulardan,kichik guruhlarda o'z yoshlariga munosib holda"Mustaqillik bayrami", "Oltin kuz", "Yangi yil bayrami", "8-mart Xotin-qizlar bayrami", hamda "Navro'z bayrami"; O'rta guruhlarda ham, Mustaqillik bayrami", "Oltin kuz", "Yangi yil bayrami", "8-mart Xotin-qizlar bayrami", hamda "Navro'z bayrami"; Katta guruhlarda,"Mustaqillik bayrami", "1-oktabr ustoz va murabbiylar kuni", "Oltin kuz", "Ona tilim", 18-noyabr O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun, 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi qabul qilingan kun,10-dekabr O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi qabul qilingan kun,"Yangi yil bayrami","Vatan himoyachilar kuni", "8-mart Xotin-qizlar bayrami", hamda "Navro'z bayrami", "Xotira va qadrlash kuni"; Tayyorlov guruhlarida ham ,"Mustaqillik bayrami", "1-oktabr ustoz va murabbiylar kuni", "Oltin kuz", "Ona tilim", 18-noyabr O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilingan kun, 8-dekabr O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi qabul qilingan kun,10-dekabr O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi qabul qilingan kun,"Yangi yil bayrami","Vatan himoyachilar kuni", "8-mart Xotin-qizlar bayrami", hamda "Navro'z bayrami", "Xotira va qadrlash kuni" va "Xayr bog'cha" bayram ertaliklari o'tiladi.Ushbu barcha bayram ertaliklari bolalarning hayotida muhim rol o'ynab,yaxshi eslarida qoladi.Bayram ertaliklari bolalarga dam olish va erkin harakat qilish imkoniyatini beradi.Har bir bayram ertaliklari albatta sovg'alarsiz yakunlanmaydi.Har xil o'yinchoqlar va shirinliklar tuhfa qilinadi.Ayniqsa, bularning barchasi bolalarning otalalarini va yaqinlarini judayam xursand qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ko'ngil ochar soatlar.Hozirgi kunda bolalarga ta'lim va tarbiya berish dolzarb masalalaridan biridir.Aynan mana shu davrda bolaning faoliyat turiga nisbatan tushunchasi shakllantiradi.Ularda estetik idrokining rivojlanishi uchun ularga san'at asarlari va musiqa bilan tanishtirish kerak.Bolalarning yoshlariga mos har xil raqslar,ashulalar va teledasturlar ularning estetik rivojlanishida katta yordam

beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bayram ertaliklari va ko'ngil ochar soatlar ssenariylarsiz qilinishi bu juda qiyin ishdir. Albatta barcha ko'ngil ochar soatlar ssenariylari bilan yanada qiziq bo'ladi. Senariyga o'yinlar, spektakllar, raqslar, milliy va estrada qo'shiqlar hamda tomoshalar bo'lishi zarur. Shuning barobarida ko'pchilik pedagoglar bayram ssenariysiga ehtiyoj sezadilar. Yuqoridagi ssenariy esa bundan mustasno.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida estetik tarbiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik tarbiya-jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qiluvchi tarbiya bo'lib, u didni shakllantirishga hamda rivojlantirishga hamda insonlar bir-birilari bilan yaqinlashishga yordam beradi. Bolalar bog'chasining go'zallik muhiti bolalarning estetik didlarining shakllanishiga yordam beradi. Estetika va etikaning birligini oilada hamda bolalar bog'chalarida kichkintoylarni tarbiyalashda qo'llash mumkin. Ammo haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning madaniyatli, xushmuomala, badiiy didli bo'lishlari hamda yaxshi xulqli bo'lishlari talab etiladi. Tarbiyachi ham mashg'ulotlar paytida xonaning bezaklarini, gullarning chiroyliligini, tartib bilan mashg'ulotlarni bajarishini, o'zlariga yurish-turishlariga e'tibor berishni ko'rsatib estetik tarbiyalarni shakllantirishga yordam beradilar. Hozirgi ko'p maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalar ayniqsa kichkintoy qizlar estetikani yaxshi ko'rishadi. Masalan, biror bir tarbiyachi ayolni yaxshi ko'rib uning madaniyatli ohangda gapirishlariga taqlid qilishadi. Ayniqsa, kiyimlarini ajrata boshlaydilar. Estetik tarbiya asosan kattalarning namunasidir. Tarbiyachining o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlarsiz estetikaga qiziqish uyg'ota oladi.

Bayramlar va o'yin-kulgularni tayyorlash va amalga oshirishda bolalarda ma'naviy ta'lim ya'ni, oddiy tajribalar bilan jamoada ishlashni o'rgatadi. Undagi ashula, o'yinlar, raqslarda bolalarning ishtirok etishi ularning tanasi rivojlanishi va harakatlarini yaxshilaydi. Musiqiy faoliyat turlari. Musiqa mashg'ulotlari bola hayotni musiqiy obrazlar bilan idrok etishga yordam beradi. Har xil metodlardan foydalanib bolalarga musiqiy mashg'ulotni o'tish ularga badiiy-estetik zavq bag'ishlagdi, ijodiy fikrlash qobiliyatini shu bilan birga bolaning nutqini shakllantiradi. Undan tashqari musiqiy o'yinlar va ritmik harakatlar ham chaqqonlik, qomatning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyat turlariga:

1. Musiqa tinglash.
2. Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish.
3. Qo'shiq kuylash.
4. Bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish.
5. Musiqa savodi.

-Musiqa tinglashda har bir bola musiqa tinglash orqali, musiqa tinglash madaniyatini shakllantiradi.

-Musiqa-ritmik harakatlarni bajarishda bolaning harakatlarini yanada

rivojlantiradi hamda bolalar ruhiyatiga musiqiy asarning mazmunini singdiradi. Bu esa bolaning jismonan sog'lom bo'lishiga katta yordam beradi.

-Qo'shiq kuylashda har bir guruh bolalari uchun alohida musia asarlari mavjud bo'lib, har bir guruh o'z yoshiga mos holda qo'shiq kuylashadi.

Bu esa bolaning nutqi, musiqiy qobiliyati va xotirasini yaxshilaydi. Agarda jamoaviy holda kuylashsa esa hamjihatlik bilan ijro etishga yordam beradi.

-Bolalar musiqa cholg'ularida jo'r bo'lish: bolalarning musiqiy faoliyat turlaridan eng qiziqarli mashg'ulotlaridan biridir. Sababi barcha cholg'u asboblari bolani o'ziga jalb qiladi. Agarda bolalarda bilgan ashulani cholg'u asbobiga chalsak ular ham birdaniga ashulani kuylab ketishadi. Bu esa bolalarning musiqaga yanada qiziqishlari, musiqiy uquvlarini va xotiralarini yaxshilaydi.

-Musiqa savodi bu barcha maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda qo'shiq kuylash, musiqa tempini, balandligini, ritmini, xarakterini va musiqaning ladlarini o'rganishda yordam beradi.

Bola va uning qobiliyatlarining o'sishi katta kishi tomonidan uyushtiriladigan holda: ritmika, musiqa tinglash, ritmika va musiqa asboblari chalishda sodir bo'ladi. Bularning barchasi tashkiliy shakllarda: o'qishdan tashqari ishlarda, mashg'ulotlarda va mustaqil faoliyatlarda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyatlar.

1. O. I. Ruziyeva „Bolalarning musiqiy ta'limi“ O'quv qo'llanma. Qarshi. „Intelekt“ nashriyoti 2023 .
2. Muhiddin Abdullayev, Husniddin Tursunov „Maktab repertuari “ O'quv qo'llanma Qarshi „Nasaf“ NMIU 2022.
3. Muhiddin Abdullayev „Maktabgacha ta'limda musiqa o'qitish metodikasi“ „Nasaf“ NMIU 2024
4. Sharipova G. Xodjayeva Z. “Musiqa o'qitish metodikasi”. Darslik Toshkent „NIF MISH“ 2020.
5. G.M. Sharipova, G.T. Tojiyeva . Musiqa metodikasi O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2012.